UMUMIY O'RTA TALIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Pardayev Baxtiyor Abdujabborovich
A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik ta'lim va tasviriy san'at fanlari kafedrasi o'qituvchisi
e-mail: baxtiyorpardayev89@gmail.com

Annotasya. *Ushbu maqolada umumiy o'rta talim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv oid mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik mahorat, kreativlik, qobiliyat, integrativ yondashuv,*

Respublikamizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangiliklar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. O'quvchilarni barkamol avlod bo'lib voyaga yetishishi, o'z iqtidorini to'la namoyon etishi, barcha qobiliyatlarini yuzaga chiqarib, jamiyatda o'z o'rnini topishida barcha fanlar qatori tasviriy san'at fani ham muhim o'rin egallaydi. Chunki o'quvchilarning umumta'lim fanlaridan olgan nazariy va amaliy bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirishida tasviriy san'at fani asosiy vazifani bajaradi.

O'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg'unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o'stirish, ijodkorlikni rivojlantirish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, innovatsion g'oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tadbiq etishda tasviriy san'at va chizmachilik fanlari katta ahamiyatga ega. Tasviriy san'at fanini o'qitishda kreativ yondashuv kundalik hayotning ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini taqozo etadi. Bunday yondashuvdan maqsad - ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda maktab, jamoatchilikni keng jalb qilish orqali ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ'ib qilishga qaratilgan.

Hozirgi kunda yangiliklar, yuqori texnikaviy-texnologik innovatsiyalar, ma'lumotlar oqimining o'sib borishi hayotning barcha jabhalarida to'rtinchi texnologik inqilobni yuzaga keltirmoqda. Shaxsning qiziqishlari va

jamiyatning talablari o‘zgarmoqda. Bugungi kunda butun dunyo maktab o‘quvchilarini robototexnika, modellashtirish, konstruksiyalashtirish, programmalashtirish, 3D-loyihalashtirish va boshqa ko‘plab yangiliklar qiziqtirmoqda. Bunday qiziqishlarni amalda sinab ko‘rish uchun yanada murakkabroq bilim, ko‘nikma, malakalarni egallash va kompenesiyalarni shakllantirish zarur bo‘ladi. Bu o‘rinda nafaqat bilish va uddalay olish balki, tadqiqot olib borish va ixtiro qilish talab etiladi. Mazkur yo‘nalishda tabiiy va aniq fanlar ta’limida olingan ilmiy (akademik) bilimlarni fan-texnika, texnologiya, injenerlik san’ati, ijodkorlik bilan birgalikda bog‘lab, fanlararo bog‘liqlikni, ya’ni STEAM (S – ilm-fan, T - texnologiya, E-muxandislik, A - sa’at, M – matematika) ni joriy etish tavsiya etiladi. Matematika va fizika bilan bir qatorda o‘quvchilar robototexnika va dasturlashni o‘rganadilar. Bu jarayonda o‘quvchilar aniq va tabiiy fanlardan olgan bilimlarini amaliyotdagi natijasini shaxsan ko‘rib turadilar. STEM ta’limining muhimligi shundaki, haqiqiy fan sohasida ta’lim sifatining pastligi, moddiy texnika bazani yetarli darajada emasligi, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning sust motivatsiyasi – bularning barchasi ta’lim tizimining eng katta muammosidir. Shu bilan birga, bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan davlatimiz yuqori texnologiyalar sohasidagi fanlarning turli xil ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. Shu munosabat bilan, bugungi kunda STEM ta’limi birinchi o‘rinda turadi. Bu esa kelajakda texnologik jarayonni rivojlantirish va mamlakatimizda ilmiy va muhandislik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qoplanishiga yordam beradi. STEM ta’limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilash va ijodiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya’ni o‘yinlarda turli konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo‘llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi. Tasviriy san’at fani o‘quv dasturlari STEAM yondashuv asosida takomillashtirilib, unda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishga, ijodiy qobiliyatini o‘stirish, sog‘lom tumush tarziga amal qilish, o‘z mehnatidan zavqlanish amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan holda, mazmunan yaxshilandi. Tasviriy san’at fani blok-moduli o‘quv dasturi mazmuni:

-fanlararo, sinflararo va mavzulararo integratsiya qilindi;

-sinflar va fanlararo mavzulardagi uzviylik va uzluksizlik ta’minlandi;

-fanlar va sinflar orasidagi takrorlanishlar oldi olindi;

-o‘quvchilarni yosh psixo-fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yangi mavzular kiritildi;

Mavzularni o‘qitishga bo‘lgan yondashuvni o‘zgartirish muhim vazifa etib belgilandi. Shuningdek, tasviriy san’at fani o‘quv dasturlari mazmuni tahlil

qilinib, undagi bugungi kun talabiga javob bermaydigan, ma’nan eskirgan mavzular dasturlardan chiqarildi, umumiy mavzulardan ayrimlari integratsiya qilindi, o‘quv dasturda berilgan mavzularni xususiyatiga ko‘ra, yil fasllarga tegishli mavzular o‘rni almashtirilib, STEAM yondashuvi hamda o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo‘naltiradigan, kreativ fikrlashga o‘rgatadigan yangi mavzular kiritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Abdurasilov S.Tasviriy san’at o’qitish metodikasi. O’quv qo’llanma. Toshkent Aloqachi. 2007.

2.Xasanov R.Tasviriy san’at asoslari.T.2009.

3.Xasanov R.Tasviriy san’atdan sinfdan tashqari ishlar. Ishonch nashr savdo. MChJ. 2017. T. 2009.

4.Mavlonova R. Umumiy pedagogika. Darslik. Navro’z. 2016.